O'ZBEK TILIDA FE'L NISBATLARINING SEMANTIK VA FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI

Xolboyeva Dilnoza Shavkatovna
Termez Davlat Universiteti O'zbek Filologiyasi va Jurnalistika fakulteti
O'zbek tili ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi.

https://doi.org/10.5281/zenodo.24406390

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o'zbek tilidagi fe'l nisbatlarini mukammal tarzda o'rganish maqsad qilib qo'yilgan. Nisbat shakllari qo'shimchalari, ulardagi jihatlar va til vositalarining ahamiyati haqida so'z boradi. Fe'l nisbatlarining qoidasi va ularga istisno bo'ladigan holatlar ham tushuntiriladi. Nisbat shakllarining subyekt va obyekt munosabatlarini ifolashdagi o'rni misollar yordamida tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *nisbat, orttirma nisbat, majhul, o'zlik, harakat, holat, qo'shimcha, so'z, shakl, ma'no.*

Abstract. *This article aims to provide a comprehensive study of verb voice in the Uzbek language. It discusses the suffixes used to form voice forms, their specific features, and the significance of linguistic devices. The rules governing verb voice and exceptional cases are also explained. The role of verb voice forms in expressing subject-object relationships is analyzed through examples.*

Keywords: *voice, causative voice, passive voice, reflexive voice, action, state, suffix, word, form, meaning.*

Kirish. O'zbek tili grammatikasida fe'l so'z turkumi o'zining boy morfologik imkoniyatlari va seqirra ma'no xususiyatlari bilan ajralib turadi. Fe'l so'z turkumidagi nisbat shakllari faqatgina morfologiya bo'limidagina emas, balki sintaksis va morfemalarda ham o'rganiladi. Avvalo, nisbat shakllarini gap tahlilida har birining o'z qo'shimchalari orqali aniqlaymiz. Lekin bu holatga zid holatlar ham kuzatilib turadi. Misol tariqasida aytadigan bo'lsak, Gulasal buyumlarini olib borib, o'z xonasiga joylashdi. Bu yerda fe'l o'zlik nisbatda, lekin "-sh" qo'shimchasi birgalik nisbat qo'shimchasi hisoblanadi. Morfologiya bo'limida so'z turkumlari o'rganiladi. [1] Ular orasidan fe'l so'z turkumi shaxs va narsaning harakat va holatini ko'rsatib beradi. Fe'ldan anglashilgan harakat-holat ma'lum shaxs-narsa tomonidan bajariladi.

Ana shu shaxs yoki narsa harakatning bajaruvchisi sanaladi. Masalan: mashina yurdi. (harakat bajaruvchisi - mashina). Mavjud qoidalarga ko'ra bajaruvchining harakat va holat jarayoniga qay darajada ishtirok etishini bildiruvchi fe'l shakllari nisbat shakllari sanaladi. Misol uchun, yuvdi fe'lida yuvish harakatini bajaruvchi shaxs aniq, yuvildi fe'lida noaniq, yuvishdi fe'lida birdan ortiq, yuvdirtirdi fe'lida esa harkat boshqa shaxs vositasida bajarilgani ifodalangan. bu so'zda, ya'ni yuvdirtirdi fe'lida ma'no kuchaytirish vazifasini ham bajaradi.

Ushbu holat orttirma nisbat qo'shimchasi ketma-ket qo'shilishi orqali sodir bo'ladi**.**

Aniq nisbat. Bajaruvchisi aniq bolgan harakat va holatni bildirgan fe'l shakli aniq nisbat deyiladi. Aniq nisbatning maxsus qo'shimchasi mavjud emas. Masalan: keldi, ovqatlandi, bajardi, surildi, tiklandi, qaytdi. "Ovqatlandi" so'zini ko'pchilik o'zlik nisbat deb o'ylaydi, lekin bu"-lan" qo'shimchasi ma'noli qismlarga bo'linmagan. "Surildi" so'zi ham shunday. "suril" o'zi asos bo'lib kelgan. Aniq nisbat harakatning bajaruvchisi bilan harakat o'rtasidagi munosabatni maxsus nisbat qo'shimchasi orqali emas, balki fe'lning asosiy shakli orqali ifodalaydi.

[1] https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/64756

Biroq aniq nisbatning maxsus qo'shimchasiz kelishi fe'lning boshqa grammatik ko'rsatkichlari ham mavjud emasligini anglatmaydi: fe'l, zamon, mayl, shaxs-son va bo'lishli-bo'lishsizlik shakllarida qo'llanishi mumkun.[2]

O'zlik nisbat. Bajaruvchining o'zi ustida amalga oshadigan harakat va holatni ifodalaydigan fe'l shakli o'zlik nisbati deyiladi. O'zlik nisbatining qo'shimchalari -n, -in, -l, -il tarzida keltirilgan. Masalan: Bola yuvindi, qiz tarandi, yigit kiyindi. Bola yuvindi gapida yuvinish harakati bolaning o'ziga qaratilgan. Qiz tarandi gapida tarasg harakati qizning o'zi bilan bog'langan. Yigit kiyindi gapida esa kiyim kiyish harakati subyektning o'ziga tegishli jarayon sifatida ifodalangan. O'zlik nisbati qo'shimchalari o'timli fe'llarga qo'shiladi. Kiyindi (kiy – o'timli fel).O'zlik nisbati qo'shimchasi ayrim hollarda o'timsiz fe'llarga ham qo'shiladi.

O'timli fe'l o'zlik nisbat shakliga o'tgach o'timsizlashadi. Uxla, bor, ek kabi fe'llardan o'zlik nisbati yasalmaydi.Ammo kampirning dodiga odam tez to'pla(n)di. (Abdulla Qahhor).

Nurga to'ldi dara, to'ldi soy, Nur yog'(il)di qorong'i jarga. (Hamid Olimjon**).**

Orttirma nisbat. Bajaruvchining ta'siri bilan boshqa shaxs yoki narsa tomonidan bajarilgan harakat va holatni bildiruvchi fe'l shakllari orttirma nisbat shakli deyiladi. Orttirma nisbat shakllari –t, -dir, -tir, -giz, -kiz, -qiz, -ga, -kza, -qaz, -ir, -ar, -iz kabi qo'shimchalar orqali yasaladi. Orttirma nisbatdagi fe'llarda buyruqona da'vat bo'ladi. Masalan: keltir, oldir, qaytar, chaqir, ko'rsat.Orttirma nisbatning -t qo'shimchasi unli tovush bilan tugagan fe'l asoslariga qo'shiladi. Masalan: to'qi-t, ishla-t. Jarangli undosh bilan tugagan fe'l asoslariga –dir, jarangsiz undosh bilan tugagan fe'l asoslariga esa –tir qo'shimchasi qo'shiladi. Masalan: to'ydir, bildir, tushintir, kuttir**. Birgina kelmoq fe'li bundan mustasno:** keltir holatida bo'ladi**.**

Majhul nisbat. Bajaruvchisi noma'lum bo'lgan harakat yoki holatni ifodalovchi fe'l shakli majhul nisbat deyiladi.Majhul nisbat shakli unli bilan tugagan fe'l asoslariga -n, -l; undosh bilan tugagan fe'l asoslariga esa -in, -il qo'shimchalarini qo'shish bilan hosil boladi. Masalan: sanalmoq, qilinmoq. O'zlik va majhul nisbat shakllari aynan bir xil, lekin ular harakat va holatning bajaruvchisi nuqtayi nazaridan farq qiladi.O'zlik nisbatida harakat-holat bajaruvchining o'zi ustida amalga oshadi, majhul nisbatda esa bajaruvchi noma'lum bo'ladi.

Masalan: tarandi- taraldi, kiyindi -kiyildi. Egilgan boshni qilich kesmas – majhul nisbatda Polvon sal oldinga egildi – o'zlik nisbatda. Fe'l birgalik nisbatda bo'ladigan bo'lsa, -sh, -ish qo'shimchalaridan keyin zamon va shaxs-son qo'shimchalari keladi, harakat nomida esa -sh, -ish qo'shimchalaridan keyin egalik, kelishik qo'shimchalari keladi.Masalan: o'qishi – o'qishdi.

Zeboning o'qishi yaxshi – harakat nomi. Zebo kitobni o'qidi – birgalik nisbat. Majhul nisbatning funksioanl imkoniyatlari, ayniqsa, ilmiy, rasmiy va axborot uslublarida yaqqol ko'rinadi. Ilmiy matnda tadqiqot natijasi yoki bajarilgan jarayonni oldinga chiqarish maqsadida Tajriba o'tkazildi, Natijalar tahlil qilindi,

Ma'lumotlar taqqoslandi kabi shakllar qo'llanadi. Bunday gaplarda e'tibor ishni bajargan shaxsdan ko'ra, bajarilgan amal va uning natijasiga qaratiladi. Majhul nisbat gapning axborot tuzilishini ham o'zgartiradi. Aniq nisbatdagi Mutaxassis hujjatni tekshirdi gapida mutaxassis bajaruvchi sifatida ko'rsatilgan. Hujjat tekshirdi gapida esa hujjat birinchi o'ringa chiqadi.

Harakat mazmuni o'xshash bo'lsa-da, gapning kommunikativ markazi o'zgaradi. Majhul nisbatni o'zlik nisbatidan farqlash muhim. Masalan, Bola kiyindi gapida harakat subyektning o'ziga aloqador, Bola kiyintirildi gapida esa boshqa bir shaxs yoki vosita orqali kiyintirish harakati ifodalanadi.

[2] https://ziyonet.uz/ru?utm_source

Shuningdek, Eshik ochildi gapida holatga qarab majhul yoki natijaviy holat talqini yuzaga kelishi mumkin. Shu bois faqat qo'shimchaga qarab emas, gapning umumiy mazmuniga qarab xulosa chiqarish kerak.[3]

Birgalik nisbat. Bu nisbat turi harakatning bir necha shaxs yoki predmet ishtirokida bajarilishini ifodalaydi. Ko'p hollarda u –sh va –ish qo'shimchalari orqali hosil qilinadi. Misol uchun: Bolalar birga ishlashdi , do'stlar uchrashishdi, talabalar masalani muhokama qilishdi.

Birgalik nisbatining semantik xususiyati harakatda bir necha ishtirokchining qatnashishi bilan belgilanadi. Biroq bu ishtirokchilar o'rtasidagi munosabat har doim ham bir xil bo'lmaydi.

Ayrim gaplarda ular bitta umumiy harakatni birgalikda bajaradi. Masalan, Talabalar birgalikda ishlashdi gapida umumiy faoliyat ifodalangan. Boshqa gaplarda esa harakat ishtirokchilarning bir-biriga qaratilgan faoliyatini anglatadi. Misol uchun: Do'stlar quchoqlashishdi gapida o'zaro yo'nalgan harakat mavjud.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, fe'lning qaysi nisbatda turganligi eng oxirgi nisbat shakliga qarab aniqlanadi: gilamlar to'shattirildi – majhul nisbatda.Ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasining yetakchi qismida ham, ko'makchi qismida ham nisbat shakli bolsa, ko'makchi qismiga qarab fe'l qaysi nisbatdaligi aniqlanadi. Masalan: kuldirtirib turildi – kuldirildi: majhul nisbat. Nisbat shaklini aniqlash uchun, avvalo, uning shakliga ya'ni nisbat qo'shimchalariga e'tibor berish kerak. O'zbek tilida fe'l nisbatlari harakatning bajaruvchisi, harakat ta'siridagi obyekt va boshqa ishtirokchilar o'rtasidagi munosabatlarni ifodalovchi muhim grammatik guruhlardan biri hisoblanadi. Uning semantik xususiyatlari harakatning kim tomonidan bajarilishi, kimga yoki nimaga yo'nalishi,subyektga qanday aloqadorligi, boshqa shaxs orqali amalga oshirilishi hamda bir nechta ishtirokchi o'rtasida yuz berishini ko'rsatadi.

Aniq nisbat harakatni odatiy shaklda bayon qilishga xizmat qilsa, o'zlik nisbatida harakatning subyektga qaytishi yoki uning o'zida yuz berishi ifodalanadi. Majhul nisbatdada harakat bajaruvchisi grammatik jihatdan ikkinchi o'ringa tushib, harakat ta'siridagi obyekt yoki jarayonning o'zi asosiy axborot markaziga aylanadi.

Orttirma nisbat sababchilik munosabatini ifodalab, harakatning boshqa shaxs yoki vosita yordamida amalga oshishini ko'rsatadi. Birgalik nisbatida esa umumiy yoki o'zaro harakat munosabatlari namoyon bo'ladi. Fe'l nisbatlarining funksional xususiyatlari ularning gap qurilishi, sintaktik munosabatlar, axborot markazi, va matnning uslubiy tashkil topishiga ta'sirida ko'rinadi. Nisbat shakllari so'zlovchiga voqeaning turli jihatlarini oldinga chiqarish, bajaruvchi yoki natijaga urg'u berish va ishtirokchilar o'rtasidagi munosabatni aniq ifodalash imkonini beradi. Bundan ko'rinib turibdiki, fe'l nisbatlari shunchaki grammatik shakllar bo'lib qolmay, fikrni aniq, ta'sirchan va mantiqiy uslubda yetkazishda muhim vosita hisoblanadi. Ular orqali so'zlovchi harakatning bajaruvchisi va obyekti o'rtasidagi munosabatni turli nuqtai nazardan yoritish hamda kerakli o'ringa urg'u berish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Foydalangan adabiyotlar

1. A. Hojiyev. Fe'l. "Hozirgi o'zbek adabiy tili".1980
2. M.Hamroyev, D. Muhamedova, D.Shodmonqulova, X.G'ulomova, Sh.Yo'ldosheva "Ona tili" Toshkent "Iqtisod-moliya" 2007
3. Nargiza Erkaboyeva "O'zbek tilidan ma'ruzalar to'plami" 2012
4. Y. Tojiyev "Fe'llarda o'timli-o'timsizlik haqida" 1957

[3] https://uzschoolcorpara.uz/uz/Dictionary?q=nisbat

5. https://api.ziyonet.uz/uploads/books/
6. https://uzschoolcorpara.uz/uz/Dictionary?q=nisbat
7. https://ziyonet.uz/ru?utm_source